

**JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN XALQARO JINOYATLAR
TUSHUNCHASI VA TURLARI**

Abdusalimov Jahongir Zoirjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Ommaviy huquq fakulteti 1-bosqich talabasi,

ORCID:

e-mail : jabdusalimov615@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola doirasida muallif jismoniy shaxlar tomonidan sodir etilgan xalqaro jinoyatlar tushunchasi va turlarini, tushunchaning kelib chiqish tarixi , jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi choralar borasidagi davlatlar o'rtasidagi hamkorliklar , jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi xalqaro tashkilotlar va ular faoliyatini tahlil qilib, jinoyatlarni jazolashda demokratizmning ahamiyatini yoritilib, O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarda jinoyatchilikga qarshi kurashish borasida olib borgan ishlarining tahlili qilingan.*

Kalit so'zlar: *xalqaro jinoyat , genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, ICC, Interpol, ekstraditsiya.*

Kirish

Insoniyat qadimgi davrlardan beri rivojlanib shu davrga qadar yetib kelgan sivilizatsiya bo'lsada uni qiynab kelayotgan illatlar va muammolar bisyor bo'lib manashu muammolarning biri bu jinoyatchilik hisoblangan. Tarixiy rivojlanishimizning barcha bosqichlarida insoniyat jinoyatchilikga duch kelgan va hozirda ham eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Aynan XXI asrga kelib jinoyat turlari va unig xafi barcha davrlardagidan ortib ketdi xususan xalqaro jinoyatlar ham ko'payib nafaqat kishilarning huquq va erkinliklariga balki yer yuzidagi davlatlarning manfaatlariga va boshqaruviga ham jiddiy ta'sir etmoqda . Bu esa o'z navbatidan dunyo miqiyosida ko'plab davlatlarning odamlarning xavfsizligini taminlash maqsadida , jinoyatlarni oldini olish va qarshi kurashish uchun bir birlari bilan hamkorlik va aloqalarni yo'lga qo'yishiga sabab bo'ldi . Bu hamkorlikning yo'lga qo'yilishi natijasida xalqaro jinoyatchilikga xalqaro miqiyosda munosabat bildirib, jabrlanuvchilar uchunadolatni ta'minlab berish uchun maxsus amaliyotlar amalga oshirilmoqcha. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ham qator tadbirlar amalga oshirilgan bo'lib, bu tadbirlar asosida ko'plab xorijiy davlatlar bilan hamkorliklar yo'lga qo'yilib tajriba va ko'nikmalar almashish, birgalikda amaliyotlar o'tkazish orqali jinoyatchilikga qarshi kurashish ishlari amalga oshirilmoqda .

Materiallar va metodlar

Tadqiqotni olib borish jarayonida ikkita savolga javob berishga harakat qilindi: 1) Jismoniy shaxs tomonidan qilingan qanday jinoyatlar xalqaro jinoyat deb topiladi va bu jinoyatlarni qanday asoslarga ko'ra xalqaro jinoyat deb e'tirof etiladi ; 2) Bu jinoyatlarni oldinni olish va ularga qarshi kurashish borasida xalqaro maydonda davlatlar va tashkilotlar o'rtasidagi qanday hamkorlik amalga oshirilmoqda ?

Ushbu savollarga javob berish maqsadida xalqaro jinoyatlar haqidagi bir nechta maqolalar, BMT, ICC tashkilotlarining ayrim hujjatlaridan keng foydalanilib tadqiqot amalga oshirildi. Tadqiqotni olib borishda asosiy metodlar sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy, umumlashtirish hamda mantiqiy sharxlash (analiz va sintez qilish) uslublari tanlab olindi.

Tadqiqot natijalari

Jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan jinooyatlar tushunchasi va uning turlarini to'la anglab yetish uchun biz avvalo xalqaro jinoyat nima ekanligini va unning kelib chiqishini yaxshi tushunib yetishimiz kerak. Xalqaro jinoyat tushunchasi haqidagi dastlabki tushunchalar qadimgi Rim imperiyasida yashab o'tgan huquqshunos Sitserion Mark Tulleyning qo'lyozmalari asosida shakllanib bordi. Keyinchalik o'n yettinchi asrga kelganda bu tushuncha yozuvchilar tomonidan o'sha davrlarda jinoyat sodir etuvchi qaroqchi va qul savdogarlarini ifodalash maqsadida ishlatila boshlagan .[1] Lekin bu tushuncha to'laqonli ma'noda xalqaro miqiyosda qo'llanishini anglatmasdan tor ma'noda jinoyatning bir turi deb yuritilar edi.

Ikkinchi jahon urushi yakunlanganidan so'ng tashkil qilingan Nyurenberg va Tokio harbiy sudlarida urushda qo'shinlarni boshqargan harbiy rahnamolar va generallar juda o'g'ir jinoyatlarni sodir etganlikdan xalqaro huquq normalari asosida ayblandi va bu sud hozirda biz xalqaro jinoyatlar deb ataydigan tushunchaning tamaltoshi bo'ldi. 1948-yilgacha davom etgan sud ishlarining yakunida xalqaro jinoyatchilik tushunchasi umumjahon miqiyosida xalqaro havotir uyg'otuvchi, insonning huquq va erkinliklarini qo'pol ravishda taxqirlovchi va xalqaro miqiyosda amal qilani deb belgillangan normalarga qilingan xiyonat sifatida butunn dunyoda va xalqaro munosabatlardda qo'llana boshlandi .[2] Shu voqeadan keyin xalqaro jinoyat ttushunchasi butun dunyoga tarqaldi va yildan yilga uning turlari ham ortib bordi . Jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan xalqaro jinoyatlar tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak , bu jinoyatlar ham deyarli barcha jinoyatlar jismoniy shaxslar (odamlar) tomonidan sodir etiladi biroq ba'zi sabablarga ko'ra xalqaro maydonda e'tirof etildi. Bu sabablarni bilish uchun biz Xalqaro Jinoiy Sudning(ICC) 2002-yilning 1-iyulida qabul qilingan Rim nizomiga murojat qilamiz , ushbu nizomning muqaddima qismida shunday deb yozib ketilgan : "xaqaro jamiyatni to'laligicha xavotirga soladigan juda jiddiy jinoyatlardir "[3] . Bu shuni anglatadiki bu jinoyatlarning xalqaro hamjamiyatga soladigan xavfining darajasi juda yuqori va uning oqibatlari ham og'irdir.Rim nizomini imzolagan davlatlar uchun sud tomonidan chiqarilgan qarorlar bajarilishi majburiy hisoblanadi. Shaxs tomonidan sodir etilgan harakat jinoyat deb topilishi uchun uchta asos mavjud. Bular, sodir etilgan harakat xalqaro hamjamiyat va huquq tomonidan qabul qilingan va amal qilinadigan meyoriy hujjatlar va ularning normalarini buzishi, xalqaro tashkilotlar va ittifoqlar tomonidan insoniyatga jiddiy xavf deb topilishi va xalqaro huquq normalari asosida harakat ustidan sudga murojat qilingan bo'lishi kerak. Genotsid, insoniyatga qarshi qilingan jinoyatlar va urushda qilingan jinoyatlar umumiyligi xalqaro jinoyatlar sifatida e'tirof etiladi.

Bir millatni, etnik, irqiy, diniy guruhlarni qisman yoki to'laligicha yo'q qilib tashlashga qaratilgan har qanday harakat : guruh a'zolarini o'ldirish, insonlarga og'ir jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazish, guruhda tug'ilishni to'xtatish uchun cheklovlar

qo'yish, guruhdagi bolalarni majburan boshqa guruhga ko'chirish kabilar genotsid sifatida e'tirof qilinadi.[4] Yaqin tarixda ham insoniyat ko'plab davlatlarda sodir bo'lgan genotsidlarning guvohi bo'ldi. Misol uchun 1994 yildagi Rwanda davlatida taxminan bir millionga yaqin Tutsis va qisman hutus qabilalarining 100 kun ichida hukumat kuchlari va boshqa qabilalar tomonidan qirib tashlanishi genotsidning yaqqol misolidir chunki sodir etilgan harakat butun bir etnik guruhning yo'q qilinishiga qaratilda va yo'q qilindi ham .[5]

Rim nizomiga[6] ko'ra insoniyatga qarshi jinoyatlar aholining huquq va erkinliklarini toptashga qarshi qaratilgn va juda keng tarqalgan harakatlarning jamlanmasidir. Dunyoda XX asrda sodir bo'lgan ikki jahon urushidan keyin inson huquqari faqat davlatlardagi qonunlarning o'zida belgilanmasli va u faqat milliy muammo emas , balki umumbashariy muammo ekanligi sababli xalqaro huquq tizimida ham bo'lishi kerak ekanligini anglab yetdilar. Uzoq tarix odamlarga davlatning o'zi insonning huquqlarini bir yo'sinda ta'minlay olmasligini ko'rsatdi. Shu sababli insoniyatga qarshi qilingan jinoyatlar nafaqat bir davlatning qonunlarida belgilangan inson huquqlarini buzish, balki xalqaro jamiyatning tinchligi va xavfsizligiga taxdid qilish sifatida e'tirof qilindi. Quyidagi jinoyatlar bu kategoriaga misol bo'ladi : qotillik; guruhni yo'q qilib tashlash; qul qilib sotish; qiynash; zo'rslash, jinsiy zo'ravonli, onalikka majburlash;

Giyohvandlik moddalarini sotish va boshqa noinsoniy harakatlardir. Albatta bu harakatlarning bari muayyan shaxslar tomonidan sodir etiladi va nafaqat bir shaxsga , balki oddiy odamlar guruhiga, ularning huquq va erkinlliklarini toptashga qarshi qaratilgan bo'ladi . Misol uchun qul qilib sotish jinoyati bu shaxsning huquq va erkinlliklarini cheklab uning ustidan hukmronlik o'rnatib unga va u bajarayotgan ishlarga ho'jayinlik qilish. Bu harakatlarning aksariyati bolalar va ayollarga nisbatan qilinishining o'zi naqadar achinarli.

Shuningdek, giyohvandlik moddalarini savdosini beri xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinadigan obyekt bo'lib kelmoda. Bugungi kunda dunyo bo'ylab psixotrop va giyohvandlik vositalarini tartibga solish Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN) tomonidan 1961-yilda qabul qilingrisidagiian Narkotik moddalar to'g'risidagi Single konvensiyasi vositasida tartibga solinadi. Ushbu konvensiyada keng huquqiy ta'sir choralar qo'llanilishi va noqonuniy moddalar savdosini nazorat qilishga oid uslublar keltirigan. Xususan, konvensiyada quuyidagi:

1. Moddalarni o'stirish va ishlab chiiqarish;
2. Bir joyda saqlash;
3. Sotish va sotib olishga nisbatan javobgarlik mavjudligi keltirib o'tilgan.[7]

Yuqorida aytib o'tilgan jinoyatlardan tashqari biz boshqa ko'plab jinoyatlarni ham ko'rishimiz mumkin . Bu jinoyatlardan hozirgi davrda keng tarqalganlaridan yana biri bu kiberjinoyatlar. Kiberjinoyatlar ham yetarli ko'nikma va bilimga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan sodir etiladi. XXI asrga kelib fan-texnikaning rivojlanishi natijasida yanada yangi texnikalar yaratilib butun dunyo bo'ylab online savdo va aloqalarning kuchayishi natijasida kiberjinoyatchilar xalqaro banklar tizimlari, xayriya tashkilotlari hisob raqamlari, oddiy odamlarning kartalariga buzib kirish orqali sodir etadigan iqtisodiy jinoyatlar ham oshib borib hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ushbu jinoyatning oqibatida nafaqat oddiy odamlar , balki xalqaro banklar, xalqaro tashkilotlar va hattoki davlatlarning iqtisodiyoti ham jiddiy zarar ko'rmoqda. Shunning o'zi

bu jinoyatning qanchalik xavfli ekanligi va unga qarshi kurashish uslublarini ishlab chiqish va ularni kuchaytirish kerak ekanligini anglatadi.

Xalqaro jinoyatlarning miqdori va xavfi oshib borishi natijasida davlatlar o'rtasidagi aloqalar ham oshib bordishi natijasida qator xallqaro tashkilotlrrga asos solindi. Shular qatorida, Xalqaro Jinoiy Sudi(International Criminal Court) asosiy organ hisobllanadi va uning tashkil qilinishi ham insoniyatni jinoyatlardan himoya qilishni yanada yaxshilash borasida qilingan ishlarning eng muhimlaridan biridir. Bu sudning tuzilishi natijasida jinoyatlarni aniq belgilar olishga doir normalar va ularga qanday jazo choralarini qo'llash borasida maxsus hujjatlar qabul qilindi. Ularning eng asosiysi Rim nizomi bo'lib, unda suning tuzilishi, xalqaro jinoyatlar turlari, xalqaro jinoyat huquqining asosiy prinsplari, sudning vakolatlari, tekshiruv o'tkazish tartibi, jazo turlari, mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikllar o'rnatish tartibi, shuningdek, tohaqida normalar yozilgan . Garchi ICC xalqaro jinoyatchilikga qarshi kurashish borasida yetakchi tashkilot bo'lsada Rossiya, Xitoy, Hindiston, Pokkiston, Saudia Arabistoni, Indoseziya, Qozog'iston kabi ko'plab davlatlar azo emas. O'zbekiston esa bu tashkilotga qo'shilish uchun ariza bergan va davlatimiz tashkilotga qo'shiluvchi davlatlar ro'yxatida turibdi.

Shuningdek, xalqaro maydonda Interpol (International criminal police organization)ham faoliyat olib bormoqda. Bu tashkilotni butun dunyo bo'ylab 195ta davlatda o'z bo'limlari mavjud bo'lib u xalqaro huquqni muhofaza qilish organlarining asosi sifatida xalqaro maydonda politsiya vazifasini amlaga oshiradi.[8] Garchi Interpol faqatgina butun dunyo bo'ylab politsiyalardagi ma'lumotllarni ularshuvchi tashkilot bo'lsada, bu tashkilot barch organarni kerakli tajriba, bilim va qurollar billan ta'minlaydi. Mamlakatimizda ham bu tashkilotning Milliy markaziy buyrosi uzoq yillardan beri faoliyat yurutmoqda va jinoyat qilib sababli O'zbekistondan qochib ketgan yoki kirib kelgan ko'plab shaxslarni ushlab kelmoqda. Xususan, 2022-yilda xalqaro qidiruvdag'i ikki nafar shaxslar ushlani O'zbekistonga olib kelingani IIV tomonidan xabar qilinndi. Bu shaxslarning biri giyohvand moddalar savdosini bilan bog'liq jinoyatni sodir etganlikda ayblangan bo'lib, uzoq vaqt davomida chet elda yashirinib kelgan va tezkor tadbirlar natijasida Ukrainada hibsga olingan. Ikkinchi qidiruvdag'i shaxs esa O'zbekistonda internet platformasida moliyaviy piramida yartib ikki mingdan ortiq fuqaroni aldam chet eldan yurgan payti hibsga olingan. Bu ikki shaxs ushllanganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan ekstradisiya qilish to`g`risidagi iltimosnomasi tasdiqlangandan so'ng, Interpol xodimlari hamrohligida jinoyatchilar munosib jazo olish uchun O'zbekistonga olib kelinadi.[9]

Shu jumladan o'zaro hamkorlik va tajriba almashishlarning natijasida davlatlar tomonidan xalqaro jinoyatchiliga qarshi kurashish uchun maxsus uslublar yaratildi. Bu uslublardan biri bu: dunyo bo'ylab davlatlarning bir-biri bilan shartnomma asosida xalqaro qidiruvga kirgan yoki qidirilayotgan shaxslarni ushlab berish amaliyotidir. O'zbekiston ham bu amaliyotdan faol foydalanib qator xorijiy davlatlar bilan kelishuvga erishgan. Bu borada biz bilan yaqindan hamkorliq qiladigan davlatlar Pokiston, Birlashgan arab amirliklari, Xitoy va Rossiya davlatlari hisoblanadi. Pokiston davlati bilan jinoyatchilarni ushlab berishga oid kelishuvlardan so'ng 2022-yilning yozida Pokistonda firibgarlik orqali mingdan ortiq odamning 3 million AQSh dollari miqdoridagi pullarni

o‘zlashtirgan jinoyatchilar qo‘llga olinib Pokiston hukumatiga topshirildan. Shuningdek, 2023-yilning kuz oyida O‘zbekistonda shov-shuvga sabab bo‘lgan soxta treningchi Islom Ibrohimov sodir etgan jinoyatni oladigan bo‘lsak . U trening bilan shug‘ullanib odamlar ishonchiga kirib ko‘p marotaba firibgarlik jinoyatini sodir etgan. Qilgan ishlarini yaxshi anglagan Islom zudlik bilan O‘zbekistonni tark etadi. Biroz muddatdan keyin unga nisbatan qidiruv e’lon qilinadi va uni Kanadada ekanligi ma’lum qilinadi, biroq keyinroq bu ma’lumot xato ekanligi va u Birlashgan Arab Amirliklarini Dubay shaxrida yurgani aniqlanadi. Birlashgan Arab Amirliklari va O‘zbekiston o‘rtasidagi jinoyatchilarni ushlar berish to‘g‘risidagi 2014-yil 11-noyabrdagi[11] ikki tomonlama kelishuvga ko‘ra mamlakatimiz hukumati tomonidan BAA ga rasmiy so‘rov yuborilgandan keyin BAAning maxsus organlari Islom Ibrohimovni topib uni o‘zlarining qununchiliklariga binoan rasmiy qarorga qadar hibsda ushlab turadi, maxsus qarordan keyin jinoyatchi transit qilinib O‘zbekistonga olib kelinadi va u qilgan qilmishi uchun munosib jazo berilishi ta’milanadi. Shu asnoda xalqaro maydondagi davlatlar hamkorlik amalga oshirilib jinoyatchilikga qarshi faoliyatlar amalga oshirilib xalqaro normalarga muvofiq jinoyatchilar jazolanmoqda .

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida tahlillar asosida takidlash lozimki, garchi xalqaro jinoyatchilik xalqaro hamjamiyatga xavf soladigan muammlardan biri sifatida qaralishi uzoq davr mobaynida uning shakllanib kelganligi va xalqaro huquq normalari asosida tartibga solina boshlanganligi, xalqaro jinoyatchilikga qarshi tuzilgan qator tashkilotlar faoliyati shuningdek, xalqaro maydonda olib borilayotgan ishlar va harakatlar natijasida jinoyatchilikga qarshi faol kurashish ishllaring amalga oshirilayotganligi koastildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ham qator tadbirlar amalga oshilib, ko‘plab tashkilotlarda jinoyatchilikga qarshi kurashish borasida faol harakat qilinmoqda. Bunga misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT minbarida giyohvand moddalar va ularning noqonuniy aylanmasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolaytganligi, shuningdek O‘zbekiston va butun Markaziy Osio orqli o‘tgan transchegaraviy va transkontinental havo, temir yo‘l va avtomobil yo‘llari giyohvand moddalar kontrabandasini uchun jozibador “tranzit koridorlar” hisoblanishi va bu turdagи jinoyatlarrga qarshi kurashish uslubllari unchallik foyda bermayotgani va kurashish borasida qat’iy choralar ko‘rilibb, yangi uslublar yaratish kerakligi haqida so‘zlagan nutqini olishimiz mumkin.[12] Shuningdek, O‘zbekiston Mustaqil davlatlar hamdo‘sligi (MDH) va Shanhxay hamkorlik tashkilotida (SHHT) ham xalqaro jinoyatchilikga qarshi kurashish ishlarida faoldir. Xususan, O‘zbekiston MDH ning jinoiy ishlar bo‘yicha hamkorlikka oid quyidagi hujjalarga qo‘shilgan:

1. “Mahkumlarni jazoni o‘tashlarini davom ettirishlari uchun topshirish to‘g‘risida”gi Konvensiya (1998 yil 6 mart, Moskva)
2. “Jinoiy jazolarni ijro etishni tashkil etish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi Bitim (1997-yil 12-sentyabr,Baku)
3. “Mustaqil davlatlar ichki ishlar vazirliklarining jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorligi to‘g‘risida”gi Bitim (1992 yil 24 aprel, Olma-ota). [13]

Qabul qilingan ushbu hujjatlar asosan jinoyatlarga oid hujjatlar va so'rovlар, jinoyat sodir etgan shaxslarga oid tezkor-qidiruv ma'lumotlari, o'zaro tezkor-qidiruv ishlarini o'tkazishga ko'maklashish, ilmiy-texnik ma'lumotlarni almashish va ilmiy hamkorlik qilish masalalari tartibga solingan.

Xulosa

Xalqaro jinoyatchilik uzoq davr mobaynida insoniyatni qinyab kelayotgan bo'lsada bu davrga kelib mamlakatlar orasidagi diplomatik munosabatlarning iliqlashuvi natijasida xalqaro jinoyatlarning xavfi tushunib yetildi. Bu esa o'z navbatida davlatlarni o'zlarining fuqarolari zarar ko'rmasligi uchun harakat qilishlariga sabab bo'ldi. Davlatlar shu asnoda bir bilari bilan hamkorliklarni yo'lga qo'yib jinoyatchilikga qarshi kurasha boshlaganllaridan keyin xalqaro tashkilotlar tuzilib, maxsus konvensiyalarning qabul qilinishi barcha davlatlarning maqsadi o'z fuqarolarini nafaqat hayoti, balki huquqlarini ham himoya qilish ekanliginni ko'rsatdi. Yaqin kelajakda bu hamkorliklarni takomillashuvi jinoyatlar sonini keskin kamaytish va xalqaro darajada insonning huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlashnni yanada yaxshilash imkonini beradi deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

I. M. Cherif Bassiouni, 'International Crimes: The Ratione Materiae of International Criminal Law', in: M. Cherif Bassiouni (ed.), International Criminal Law. Vol. I: Sources, Subjects and Contents, 3rd ed., Martinus Nijhoff Publishers: Leiden 2008, p-129.

II. International crimes – Introduction <https://www.asser.nl/nexus/international-criminal-law/international-crimes-introduction/>

III. A.Haque, International crimes : In context and in contrast [https://www.researchgate.net/publication/228220627 International Crime In Context and in Contrast/citation/download](https://www.researchgate.net/publication/228220627)

IV. A.Trodden, International crime:concept and types. <https://tostpost.com/the-law/22350-international-crime-concept-and-types.html>

V. <https://www.prosecutionservice.nl/topics/international-crimes/what-are-international-crimes>

VI. Rome statute of international criminal court <https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/RS-Eng.pdf>

VII. K.J.Heller, What is international crime? (A Revisionist history), p-44 <https://advance.lexis.com/api/document?id=urn:contentItem:5RWF-3WK0-00CW-22B2-00000-00&idtype=PID&context=1516831>

VIII. Interpol—five actions for a safe world, <https://www.interpol.int/Who-we-are/What-is-INTERPOL/INTERPOL-Five-actions-for-a-safer-world>

IX. <https://darakchi.uz/oz/154139>

X. Ekstraditsiya to'g'risadi qonun. <https://lex.uz/uz/docs/-2197695>

XI. Ushlab berish to'g'risidagi qonun. <https://lex.uz/uz/docs/-3067339>

XII. Исмоилов, Бобуржон. О'zbekiston respublikasining mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorligining xalqaro-huquqiy asoslari / Бобуржон Исмоилов, Жасур Аслонов. —

Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 28 (370). — С. 218-223. — URL: <https://moluch.ru/archive/370/83155/> (дата обращения: 20.11.2023)

XIII. Исмоилов, Бобуржон. O‘zbekiston respublikasining mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorligining xalqaro-huquqiy asoslari / Бобуржон Исмоилов, Жасур Аслонов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 28 (370). — С. 218-223. — URL: <https://moluch.ru/archive/370/83155/> (дата обращения: 20.11.2023)